

## “OZODLIK”KA TASHNA TAQDIRLAR

**Ruxshona ISOQOVA,**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878549>

***Annotatsiya:** Javlon Jovliyevning “Ozodlik” hikoyasi sobiq sho‘ro davridagi adolatsizliklarni va amaldorlarning qora illatlarini bayon etadi. Ushbu hikoyada o‘sha davrda yuz bergan nohaqliklar va xalq boshiga tushgan qiyinchiliklar haqida aniq va lo‘nda tasvirlanganligi tahlillar bilan ochib berildi. Ushbu hikoyada asarning g‘oyaviy - konsepsiyasi, syujet liniyalari va kompozitsion qurilishlariga ham e‘tibor qaratildi.*

***Kalit so‘zlar:** Obrazlar tasnifi, kompozitsiya, syujet liniyalari, o‘sha davrda yoritilgan kamchiliklar, asar tahlili.*

Javlon Jovliyevning “Ozodlik” hikoyasi inson erkinligi, ichki kurashlari va jamiyatdagi munosabatlar haqida chuqur mulohazalarga chorlaydi. Asar qahramonlari o‘zlarining ichki kechinmalari va tashqi muhit bilan bo‘lgan munosabatlari orqali ozodlik tushunchasini turlicha talqin etadilar.

Hikoya markazida ayol obrazi turadi. Uning oppoq yuzlaridan dumalab tushayotgan yosh tomchilari, lablaridan oqayotgan yoshni yashirish uchun og‘zini kafti bilan yopishi uning ichki iztiroblarini yaqqol namoyon etadi. Bu tasvir orqali muallif ayolning nozik va sezgir qalbini, uning ichki azoblarini o‘quvchiga yetkazadi. Ayolning tog‘asi esa asabiy titrab, bo‘yinbog‘ini pastga tortib, xo‘rsinishi orqali uning ham ichki ziddiyatlari ko‘rsatilgan.

Ushbu hikoya sobiq sho‘ro davrida yuz bergan qiyinchiliklar, amaldorlarning adolatsizliklari va oddiy omi xalqning fojiali qismati yoritilgan. Hikoyaning sarlavhasiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, avvalambor, nega aynan “Ozodlik” deya nomlandi? Hikoya sarlavhasi kitobxonni oz bo‘lsa-da o‘ylantiradi. Aslida asarni o‘qigan kishi u yerda hech qanday ozodlik bor ekanligini his etmaydi aksincha paxta terishdan charchagan va har xil ayblov va tuxmatlar bilan beayb qamalib ketayotgan, zulm va adolatsizlik ostida ezilgan oddiy xalq haqida edi. Buni yaqqol dalilini paxta terish bilan shug‘ullangan va tuxmat bilan qamoqqa tushib qolgan Egamberdi qiyofasida ko‘ramiz.

Egamberdining xotini uni qamoqdan chiqarish uchun yuqoridagilarga xat yozadi. U shunchalar sodda va ishonuvchan obraz sifatida gavdalandiriladiki, buni erini ozod qilishlari uchun xat yozayotganda ko‘ramiz. Balki erimni aybi qo‘shnimiz ichib kelib xotinini urganida erim ajratib tazirini berganidadir, lekin u hammaga yaxshi bo‘lishini xohlaydi. Agar erimni aybi shu bo‘lsa uni kechiringlar – deya

aytadi. Syujet liniyalarini tahlil qiladigan bo‘lsak Egamberdi ham oddiy odam. O‘sha davrda hamma qatori “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” – deya yashagan va yoshligidan boshlab sobiq sho‘roga halol mehnat qilayotgan insonlar sirasidan edi. Uning onasi doimo xarom yema deya ta’kidlab, halol luqma bilan katta qilgan ayollardan edi. U o‘zining so‘nggi nafasigacha onasining shu so‘zini eslab bu shafqatsiz hayotdan ko‘z yumadi.

O‘sha davrda xalq qiynalgan, hammaning yosh-u qarining birdan bir yumushi paxta terish edi. Hattoki o‘sha davrning shafqatsiz amaldorlari paxta terish uchun insonlarga yordam beradigan texnologiyani o‘ylab topgan va uni yaratmoqchi bo‘lgan kashfiyotchi Egamberdini arzimasi tuxmat bilan umrini zavol qildi. Tergovchi o‘zi ham bu dunyodan ro‘shnolik ko‘magan, xotini bo‘lsa tashlab ketgan va o‘zi esa bir o‘zbek professorining rus xotiniga ilakishib qolgan inson edi.

Asarni to‘laqonli tahlil qilganimizda ham bu hikoyada hech kim baxtli emas. Hammaning qandaydir muammolari, hayot boshiga solgan sinovlari va qiyinchiliklari bor. Sobiq sho‘ro davrida nafaqat o‘zbek xalqining qadriyatlari toptaldi, balki o‘zbek o‘zining o‘zbek ekanligini ham unutib qo‘ydi. O‘zbeklar faqat paxta terish bilan shug‘ullandilar. Hattoki olim, professorlar ham ushbu ishga jalb qilindi.

Muallifning badiiy mahorati shundaki, u kichik detallarga e’tibor qaratib, qahramonlarning ruhiy holatini ochib beradi. Yong‘oq daraxtining shapaloqday yamyashil barglari orasidan ko‘rinib turgan quyoshning parchalangan nurlari tasviri orqali muhitning tinchligi va go‘zalligini, shu bilan birga, qahramonlarning ichki notinchligini aks ettiradi.

Umuman olganda, “Ozodlik” hikoyasi insonning ichki va tashqi ozodligi, jamiyatdagi o‘rni va shaxsiy his-tuyg‘ularining murakkabligini mahorat bilan tasvirlaydi. Muallifning nozik kuzatuvlari va chuqur psixologik tahlillari asarni o‘quvchi uchun qiziqarli va ta’sirchan qiladi.

Ushbu asar hikoya janrida yozilgan bo‘lsa-da, xuddiki bir roman o‘qigandek bo‘ladi kishi. Aynan yozuvchining mahorati ham shundadir. Hikoya janr jihatidan kichkina bo‘lishiga qaramasdan, asarning kulminatsiyasi to‘laqonli va tushunarli tarzda o‘quvchiga tushuntirib berilgan va yetkazilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
2. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. [https://oriens.uz/media/conferencearticles/5\\_ORAZBAYEVA\\_Mahbuba\\_28-32.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf).

# "TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p. [https://www.researchgate.net/publication/375649608\\_Issues\\_of\\_Distribution\\_of\\_Bear\\_Image\\_in\\_Uzbek\\_Novels](https://www.researchgate.net/publication/375649608_Issues_of_Distribution_of_Bear_Image_in_Uzbek_Novels).
4. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИЩДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
5. Mahbuba O`razbayeva. XORAZM ADABIY MUHITIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZINING YARATILISHI. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/issue/view/82> 2024.05.03. 209-213-b. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2904/2844>.
6. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta'siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
7. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
8. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to'g'risidagi ma'lumotlar aks etgan asarlar. "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari". – Toshkent: 139-146.
9. Kalandarova, Dilafroz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.